

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PARVOZLAR XAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI BOSHIG'INING  
BUYRUG'I**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQARO VA EKSPERIMENTAL AVIATSIYASI AERODROMLARINI SERTIFIKATLASH QOIDALARINI  
TASDIQLASH TO'G'RISIDA (O'ZR AQ-160)**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007-yil 29-oktabrda 1734-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi]**

O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 30-moddasiga muvofiq, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasining faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni IKAO standartlari va tavsiyalarini inobatga olgan holda takomillashtirish maqsadida buyuraman:

1. "O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari" (O'ZR AQ-160) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin o'n kun o'tgach amalga kiritilsin.
3. Mazkur qoidalar amalga kiritilgan vaqtdan boshlab, Davavianazorat boshlig'i tomonidan 2000-yil 28-yanvar kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi aerodromlarini sertifikatlash bo'yicha qo'llanma" o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

**Parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i X. TROBOV**

Toshkent sh.,  
2007-yil 10-sentabr,  
138-son

Parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining  
2007-yil 10-sentabrdagi 138-son buyrug'i bilan  
TASDIQLANGAN

**"O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari" (O'ZR AQ-160)**

Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi, XFAT (IKAO) Chikago konvensiyasiga (14-ilova) muvofiq, parvozlarni xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, aerodromlarni sertifikatlashtirish va ularni keyingi ekspluatatsiya jarayonida havo kemalari parvozlari xavfsizligini ta'minlash darajasida tutib turish uchun bajarilishi lozim bo'lgan sertifikatlash talablarining yagona tartibini belgilab beradi.

**I. Umumiy qoidalar**

**§ 1. Asosiy tushunchalar va qisqartmalar**

1. Mazkur Qoidalar maqsadida quyidagi asosiy tushunchalar va qisqartmalardan foydalaniladi:

**AQ** — Aviatsiya qoidalari

**AQI** — Avariya qutqarish ishlari

**AFQ** — Antenna-fider qurilmasi

**Davavianazorat** — O'zbekiston Respublikasi Parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

**YoSU** — Yorug'lik-signal uskunasi

**PQAQTX** — Parvozlarni qidirish-avariya qutqarish ta'minoti xizmati

**PEYOTT** — Parvozlarni elektr-yoritish texnik ta'minoti

**RTUAE** — Radiotexnik uskunalari va aloqa ekspluatatsiyasi

**XFAT (IKAO)** — Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti

**Aerodrom** — Parvozlarning xavfsizligini ta'minlovchi yon-atrof hamda chekka zonalar va shu zonalarda joylashgan, havo kemalarining uchishi, qo'nishi, burilishi, to'xtab turishi va ularga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan zarur bino, inshootlar va anjomlarga ega quruqlikdagi yoki suv sathidagi maxsus jihozlangan maydon

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Aerodrom sertifikat** — belgilangan qoidalar asosida vakolatli organ tomonidan aerodromni ekspluatatsiya qilish uchun beriladigan sertifikat;

*(1-bandning o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Parvozlarning xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2015-yil 20-yanvardagi 56-n-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-6, 21.01.2015-y.) tahririda — O'R QHT, 2015-y., 3-son, 37-modda)*

**Aerodromni sertifikatlash** — aerodromlarning belgilangan talablarga muvofiqligini va parvozlarning xavfsizligini ta'minlay olish xususiyatini aniqlaydigan rasmiy jarayon

**Aerodrom ekspluatanti** — O'zbekiston Respublikasining, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga asosan o'zga davlatning muayyan aerodromga mulk huquqi asosida (aerodrom egasi), ijara shartnomasiga binoan yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra egalik qiluvchi hamda aerodromning muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lgan yuridik shaxsi yoki fuqarosi

**Sertifikatning amal qilishini to'xtatib qo'yish** — Davavianazorat tomonidan sertifikatning amal qilishini vaqtinchalik to'xtatib qo'yish bo'yicha rasmiy jarayon, bunda sertifikatning amal qilishini to'xtatib qo'yishga olib kelgan kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng uni tiklash huquqi beriladi

**Sertifikatlash talablari** — aerodrom ekspluatanti tomonidan parvozlarning xavfsizligini ta'minlash uchun bajarilishi shart bo'lgan texnik va tashkiliy talablar yig'indisi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Parvozlarning xavfsizligini boshqarish tizimi — parvozlarning xavfsizligi boshqaruviga tuzilmaviy yondashuv bo'lib, zarur bo'lgan tashkiliy tuzilmani, javobgarlik bosqichlarini, tamoyillari va tartiblarini o'z ichiga oladi.

*(1-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlarning xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2010-yil 21-apreldagi 35-sonli buyrug'iga (ro'yxat raqami 1734-2, 20.05.2010-y.) asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2010-y., 20-son, 158-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

2. Mazkur Qoidalar barcha fuqaro va eksperimental aviatsiya aerodromlariga, shuningdek fuqaro havo kemalarini qabul qilish va jo'natishni amalga oshiradigan hamkorlikda foydalanish (joylashish) aerodromlariga tatbiq etiladi.

*(2-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlarning xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2012-yil 2-avgustdagi 9n-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-4, 08.08.2012-y.) tahririda — O'R QHT, 2012-y., 32-son, 381-modda)*

3. Fuqaro va eksperimental aviatsiyaga mo'ljallangan aerodromlar sertifikatlanishi shart.

Aerodromlardan aviatsiya tashuvlarini bajaradigan havo kemalarini qabul qilish va jo'natish maqsadida foydalanish faqatgina aerodromning amaldagi sertifikatida asosida amalga oshirilishi mumkin.

4. Aerodromlarni sertifikatlashtirish Davavianazorat tomonidan ushbu Qoidalarga muvofiq bepul amalga oshiriladi\*.

\* Xalqaro aeroport aerodromlarini sertifikatlashdan o'tkazish Davlatlararo aviatsiya qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasida aerodromlarni ekspluatatsiya qilish bo'yicha yaroqlilik normalari" aviatsiya qoidalarida (O'ZR AQ-153) belgilangan talablar, mazkur Qoidalar maqsadlari uchun sertifikatlash talablari hisoblanadi.

*(5-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2012-yil 21-maydagi 48-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-3, 13.06.2012-y.) tahririda — O'R QHT, 2012-y., 23-24-son, 272-modda)*

6. Aerodrom asbob-uskunalarini Davlatlararo aviatsiya qo'mitasi yoki ishlab chiqaruvchi (tayyorlovchi) mamlakat aviatsiya ma'muriyati tomonidan berilgan sertifikatga ega bo'lishi kerak.

*Oldingi tahrirga qarang.*

7. Yo'lovchi, bagaj va yuklarni tashish uchun mo'ljallangan aerodrom "Havo transportida yo'lovchi va bagaj tashish qoidalarini" (ro'yxat raqami 2238, 2011-yil 29-iyun) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil, 26-son, 275-modda) va O'zbekiston Respublikasining "Xavfli yuklarni havo transportida tashish qoidalarini"da (O'ZR AQ-198) (ro'yxat raqami 1721, 2007-yil 25-sentabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-yil, 39-son, 407-modda) belgilangan talablarga javob berishi kerak.

*(7-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2012-yil 21-maydagi 48-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-3, 13.06.2012-y.) tahririda — O'R QHT, 2012-y., 23-24-son, 272-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

7<sup>1</sup>. Aerodromlarni sertifikatlashda aerodrom ekspluatanti tomonidan parvozlari xavfsizligini boshqarish tizimi ishlab chiqilib, unga quyidagilar kiritilishi lozim:

parvozlari xavfsizligi uchun xavf-xatarni aniqlash mezonlari;

maqbul darajada parvozlari xavfsizligini qo'llab-quvvatlash uchun tegishli chora-tadbirlarni qabul qilish masalalari;

*Oldingi tahrirga qarang.*

doimiy monitoring o'tkazish va lozim darajada parvozlari xavfsizligiga muntazam baho berishni ko'rib chiqish masalalari, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha zarur bo'lgan choralarni ko'rish maqsadida aviatsiya hodisalari va insidentlari hamda tegishli tendensiyalar tahlili;

*(7<sup>1</sup>-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2013-yil 5-fevraldagi 16 n-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-5, 21.02.2013-y.) tahririda — O'R QHT, 2013-y., 8-son, 111-modda)*

parvozlari xavfsizligining umumiy darajasini doimiy oshirishning maqsadi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur tizim doirasida aerodrom ekspluatantining barcha tashkilotlarida parvozlari xavfsizligi masalalari bo'yicha javobgarlikni taqsimlash, shuningdek parvozlari xavfsizligini bo'yicha rahbariyatning to'g'ridan to'g'ri javobgarligini aniq belgilanadi.

*(7<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2010-yil 21-apreldagi 35-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-2, 20.05.2010-y.) bilan kiritilgan — O'R QHT, 2010-y., 20-son, 158-modda)*

## **II. Sertifikatlash tartibi**

### **§ 1. Umumiy qoidalar**

8. Aerodromni sertifikatlash tartibi quyidagi bosqichlardan iborat:

a) arizani qabul qilish va ro'yxatga olish;

b) arizani oldindan ko'rib chiqib, ariza beruvchiga uni qabul qilinganligi yoki rad etilganligi to'g'risida yozma ravishda bildirish;

v) arizani va asoslovchi hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish va aniqlangan kamchiliklar to'g'risida ariza beruvchiga yozma ravishda bildirish;

- g) ariza beruvchidan asoslovchi hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish vaqtida aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilganligi to'g'risida hujjatlarni qabul qilib olish va kamchiliklar bartaraf etilganligini tekshirish;
- d) aerodromning sertifikatlash talablariga muvofiqligini joyiga chiqib tekshirish va ularning natijalari bo'yicha dalolatnoma tuzish;
- e) aerodrom ekspluatantidan sertifikatlash bo'yicha tekshirish o'tkazish vaqtida aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilganligi to'g'risida hujjatlarni qabul qilib olish;
- j) aerodromni takroran tekshirishdan o'tkazish (zarur bo'lgan hollarda);
- z) tekshirish natijalariga ko'ra aerodromga sertifikat berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror loyihasini tayyorlash.

9. Aerodrom ekspluatanti sertifikatlash oralig'idagi davr mobaynida quyidagilar o'zgarganligi to'g'risida ushbu o'zgarishlardan so'ng bir oy ichida Davavianazoratga yozma ravishda bildirishi kerak:

- a) yuridik shaxs maqomi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgarganligi;
- b) mulkchilik shakli o'zgarganligi;
- v) boshqa muassasa ixtiyoriga o'tganligi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

9<sup>1</sup>. Aerodrom ekspluatanti tomonidan aerodromning sertifikatlanganligi to'g'risidagi ma'lumot aeronavigatsiya ma'lumot xizmatiga berilishi lozim.

*(91-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2010-yil 21-apreldagi 35-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-2, 20.05.2010-y.) bilan kiritilgan — O'R QHT, 2010-y., 20-son, 158-modda)*

10. Aerodrom sertifikatining amal qilish muddati tugaganidan so'ng, o'n kunlik muddat ichida sertifikat Davavianazoratga qaytarib berilishi kerak.

## **§ 2. Sertifikatlash uchun ariza berish**

11. Aerodrom ekspluatanti tomonidan sertifikatlash to'g'risida ariza mazkur Qoidalarning 1-ilovasida ko'rsatilgan shaklda taqdim etiladi.

12. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- a) aerodromni sertifikatlashda ariza beruvchining majburiyatlari (2-ilovaga muvofiq);
- b) asoslovchi hujjatlar, parvozlarni radio va yoritish-texnik ta'minoti vositalarini yer ustida va parvozda tekshirib ko'rilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar (3-ilovaga muvofiq shaklda);
- v) Aerodrom hududida parvozlarni amalga oshirish bo'yicha yo'riqnoma;

*Oldingi tahrirga qarang.*

g) Aerodrom bo'yicha qo'llanma (3a-ilovaga muvofiq).

*(12-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2008-yil 3-sentabrdagi 188-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-1, 07.10.2008-y.) asosida "g" kichik band bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2008-y., 40-41-son, 417-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

13. Sertifikatlash to'g'risidagi ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlar "Davavianazorat" inspeksiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi uchun asos hisoblanadi. "Davavianazorat" inspeksiyasiga kelib tushgan ariza o'sha kunning o'zida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. "Davavianazorat" inspeksiyasi arizachiga ariza ro'yxatdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjat (belgi) berishi, ariza elektron shaklda berilgan taqdirda esa, ariza ro'yxatdan o'tkazilganligini "Davavianazorat" inspeksiyasining rasmiy veb-saytidagi elektron xabar bilan, tegishli yozuvga havola bilan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usul bilan tasdiqlashi shart.

"Davavianazorat" inspeksiyasida arizani ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2018-yil 30-iyuldagi 118-N-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-7, 06.09.2018-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.09.2018-y., 10/18/1734-7/1858-son)

14. Ariza va unga ilova qilinadigan barcha hujjatlarning asl nusxasi yoki ularning nusxalari taqdim etiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

15. Aerodrom sertifikatini amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza bilan Davavianazorat inspeksiyasiga murojaat qilinadi.

“Davavianazorat” inspeksiyasi arizani ko'rib chiqadi va hujjatlar qabul qilingan sanadan boshlab o'ttiz ish kunidan oshmaydigan muddatda aerodrom sertifikatini beradi yoki uni berishni rad etadi.

(15-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2018-yil 30-iyuldagi 118-N-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-7, 06.09.2018-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.09.2018-y., 10/18/1734-7/1858-son)

16. Arizani tayyorlash ariza beruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Arizachi arizada va ilova qilingan hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

17. Ushbu Qoidalarning 12 va 14-bandlari talablari bajarilmaganda Davavianazorat arizani ko'rib chiqishni rad etishi mumkin.

### **§ 3. Arizani dastlabki baholash va asoslovchi hujjatlarni ekspertiza qilish**

18. Ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni dastlabki baholash u ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab o'n kunlik muddat ichida amalga oshiriladi. Agar ushbu muddat ichida ariza qabul qilinadigan yoki rad etiladigan bo'lsa, bu haqida ariza beruvchiga yozma xabarnoma yuboriladi.

19. Arizani va ilova qilingan hujjatlarni dastlabki baholashda quyidagilar tekshiriladi:

a) aerodrom va uning elementlarining amaldagi sertifikatlash talablariga muvofiqligi to'g'risidagi axborotlarning yetarliligi;

b) aerodromdan foydalanish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalarining mavjudligi va ularning belgilab qo'yilgan talablarga muvofiqligi to'g'risida ma'lumotlar;

v) asoslovchi hujjatlarning to'liqligi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

g) aerodromga texnik xizmat ko'rsatish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan muhim ishlarni bajarish uchun tajribali va tegishli malakaga ega bo'lgan xodimlarni yetarliligi.

(19-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2010-yil 21-apreldagi 35-sonli buyrug'iga (ro'yxat raqami 1734-2, 20.05.2010-y.) asosan “g” kichik band bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2010-y., 20-son, 158-modda)

20. Ariza bilan birga taqdim etilgan hujjatlarni dastlabki baholash natijalari salbiy bo'lganda ariza beruvchiga uning arizasi qaytarib berilishining asoslangan sabablarini ko'rsatgan holda xabarnoma yuboriladi.

21. Asoslovchi hujjatlarning ekspertizasi aerodrom elementlari va uning asbob-uskunalarining sertifikatlash talablariga muvofiqligini tekshirishdan iborat.

22. Alohida hollarda, aerodromlarning sertifikatlash talablaridan chetga chiqishiga yo'l qo'yiladi, bunda yo'l qo'yilgan chetga chiqishlar o'rniga parvozlarning mos ravishdagi xavfsizlik darajasini ta'minlaydigan tadbirlarning kiritilishi shart.

Bunday hollarda ariza beruvchi, uni Davavianazoratning mazkur chetga chiqish tasarrufiga kiradigan tegishli bo'linmasi bilan kelishgan holda, mazkur Qoidalarning 4-ilovasida keltirilgan shakl bo'yicha parvoz xavfsizligining mos ravishdagi darajasini ta'minlashi haqidagi xulosasini tayyorlaydi.

23. Asoslovchi hujjatlar bo'yicha kamchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda, ariza beruvchi ularni sertifikatlash tekshiruviga qadar bartaraf etishi shart.

24. Asoslovchi hujjatlar ekspertizasi ijobiy baholanishi natijalariga ko'ra Davavianazorat tomonidan ariza beruvchini sertifikatlash tekshiruvidan o'tkazish haqida qaror qabul qilinadi, bunda ariza beruvchi bilan kelishilgan holda uni o'tkazish muddatlari belgilanadi va mazkur Qoidalarning 5-ilovasidagi shakl

ko'rinishida ariza beruvchiga yo'llanadigan qaror qabul qilinadi.

#### § 4. Sertifikatlash tekshiruvini o'tkazish

25. Aerodromni tekshirish uchun komissiya Davavianazorat tomonidan tayinlanadi. Sertifikatlash tekshiruvining dasturi komissiya tomonidan muayyan aerodromning o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda namunaviy dastur asosida ishlab chiqiladi.

26. Aerodromlarni Davavianazorat komissiyasi tomonidan sertifikatlash tekshiruvidan o'tkazish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

a) aerodromning sertifikatlash talablariga va ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga muvofiqligini joyida aniqlash;

b) yerdagi asbob-uskunalarining, aerodrom obyektlarining tarkibi va holatini, uning texnik jihozlanishini, parvozlarni va ularning xavfsizligini ta'minlashning tashkillashtirilishini aniqlash;

v) binolar, ma'muriy xonalar, parvozlarni radiotexnik ta'minlash;

g) texnik ishlar o'tkazish bo'yicha nazorat zonalari va boshqa obyektlar tegishli jihozlanganligi, uzluksiz ishlashi, nazarda tutilgan vazifalarni bajarish uchun yaroqliligiga ishonch hosil qilish.

*Oldingi tahrirga qarang.*

27. Tekshiruv natijalariga ko'ra besh ish kundan ko'p bo'lmagan muddatda tekshiruv natijalari, mulohazalar va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ko'rsatilgan dalolatnomada rasmiylashtiriladi.

*(27-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2018-yil 30-iyuldagi 118-N-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-7, 06.09.2018-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.09.2018-y., 10/18/1734-7/1858-son)*

28. Aerodromni sertifikatlash natijalariga ko'ra sertifikatlashning yakunlari, komissiyaning xulosalari va bajarilishi shart bo'lgan takliflari aks ettiriladigan kompleks xulosa yakuniy hujjat hisoblanadi. Kompleks xulosa komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolaniadi va Davavianazorat rahbari o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Yakuniy xulosaning nusxasi ariza beruvchiga yo'llanadi.

29. Davavianazorat, tekshiruv natijalarini va aerodrom ekspluatantining dalolatnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarini ko'rib chiqadi. Zaruriyat bo'lganda qayta tekshiruv o'tkaziladi va uning natijalariga ko'ra tegishli dalolatnoma tuziladi.

30. Tekshiruvning tasdiqlangan dalolatnomasiga asosan ariza beruvchi kamchiliklarni bartaraf etishi va bu haqda Davavianazoratga xabar berishi shart.

*Oldingi tahrirga qarang.*

31. Ariza beruvchining aybi bilan tekshirish o'tkazilgan kundan boshlab o'ttiz ish kuni ichida sertifikat berish haqida qaror qabul qilinmasa, bunday ariza bekor qilinadi.

*(31-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2018-yil 30-iyuldagi 118-N-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-7, 06.09.2018-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.09.2018-y., 10/18/1734-7/1858-son)*

Ariza beruvchi umumiy asoslarga ko'ra qaytadan ariza berishi mumkin.

#### § 5. Aerodrom sertifikatini berish

32. Asoslovchi hujjatlarning ekspertizasi, sertifikatlash tekshiruv natijalari ijobiy bo'lsa, barcha zarur hujjatlarni rasmiylashtirish natijasi bo'yicha Davavianazorat aerodromga sertifikat berish, uning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

33. Aerodrom sertifikati Davavianazorat tomonidan qat'iy hisobda turuvchi blankda, mazkur Qoidalarning 6-ilovasiga muvofiq, belgilangan tartibda qayd qilinadi va uch yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

34. Sertifikatning asl nusxasi ariza beruvchiga yoki bunday xatti-harakatlarni amalga oshirish vakolati berilgan shaxsga beriladi va nusxasi Davavianazoratda saqlanadi. Sertifikat, u amalga kiritilgan vaqtdan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

Sertifikat yo'qotilganda yoki yaroqsiz holga kelib qolganda belgilangan tartibda uning dublikati beriladi.

### **§ 6. Aerodrom sertifikatining amal qilish muddatini uzaytirish**

35. Sertifikatning amal qilish muddatini uzaytirish aerodrom ekspluatantining arizasiga ko'ra, birinchi marotaba sertifikat berishdagi singari tartibda amalga oshiriladi. Sertifikatning amal qilish muddati ichida o'zgarish bo'lmagan hujjatlarni qaytadan topshirmaslikka ruxsat etiladi. Bunday holda tegishli hujjat umumiy ro'yxatga izoh ("o'zgarishsiz", "oldin taqdim etilgan") bilan birga kiritiladi.

### **§ 7. Aerodrom sertifikatiga o'zgartirish kiritish**

36. Sertifikatga va asoslovchi hujjatlarga o'zgartirish kiritish uchun aerodrom ekspluatanti zarur hujjatlarni ilova qilgan holda, mazkur Qoidalarning 3-ilovasiga muvofiq, Davavianazoratga ariza bilan murojaat qilishi kerak.

37. Sertifikatga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi ariza Davavianazorat tomonidan II bobning 3-paragrafiga binoan ko'rib chiqiladi.

38. Davavianazorat sertifikatga o'zgartirish kiritish uchun sertifikatlash tekshiruvi o'tkazish (zaruriyat bo'lganda) muddatlarini belgilaydi. Sertifikatlash tekshiruvi tartibi ushbu Qoidalarning II bobning 4-paragrafi talablariga muvofiq o'tkaziladi.

39. Sertifikatlash tekshiruvi natijalari ijobiy bo'lsa, barcha zarur hujjatlarni rasmiylashtirish natijasi bo'yicha Davavianazorat sertifikatga va asoslovchi hujjatlarga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi.

### **§ 8. Sertifikatni bekor qilish, uning amal qilishini to'xtatish (tiklash)**

40. Davavianazorat tomonidan quyidagi hollarda sertifikatning amal qilishi bekor qilinadi:

a) aerodrom ekspluatanti sertifikatni bekor qilishni so'rab yozma ravishda murojaat qilganda;

b) sertifikatning amal qilish muddati tugaganda;

v) aerodrom tugatilganda;

g) aerodromning amal qilish muddati to'xtatilgan sertifikati belgilangan muddatlarda Davavianazoratga qaytarib berilmaganda.

41. Davavianazorat tomonidan quyidagi hollarda sertifikatning amal qilishi to'xtatiladi:

a) O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida amal qiladigan talablar, shuningdek aerodrom sertifikatlanishida qo'yilgan sertifikatlash talablari buzilganligi (rioya etilmaganligi) faktlari aniqlanganda;

b) aniqlangan parvozlar xavfsizligiga xavf tug'diruvchi kamchiliklarni yoki umuman parvozlar xavfsizligiga ta'sir etuvchi nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha Davavianazoratning ko'rsatmalari belgilangan muddatlarda bajarilmaganda;

v) parvozlar xavfsizligiga tahdid soluvchi va belgilangan tartibga muvofiq tekshirib ko'rilishi lozim bo'lgan hodisalarni yashirish;

g) parvozlar xavfsizligiga ta'sir etuvchi boshqa omillar aniqlanganda.

*Oldingi tahrirga qarang.*

42. Aerodrom sertifikatini bekor qilish yoki amal qilishini to'xtatib qo'yish to'g'risidagi qaror Davavianazorat rahbari tomonidan nazorat tekshiruvi o'tkazish natijalari bo'yicha tuzilgan dalolatnomaga asosan qabul qilinadi. Davavianazorat inspeksiyasi tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab bir ish kundan kechiktirmay aerodrom ekspluatantini bu haqida yozma ravishda xabardor qiladi.

*(42-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2018-yil 30-iyuldagi 118-N-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-7, 06.09.2018-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.09.2018-y., 10/18/1734-7/1858-son)*

43. Aerodrom sertifikati bekor qilinganligi yoki amal qilishi to'xtatib qo'yilganligi to'g'risida xabarnoma olgan aerodrom ekspluatanti:

a) sertifikatda ko'rsatib o'tilgan ishlarni bajarishni zudlik bilan to'xtatishi;

b) aerodromdan foydalanuvchilarni bu haqda xabardor qilish;

v) uch kunlik muddat ichida Davavianazoratga sertifikatning asl nusxasini qaytarishi shart.

44. Amal qilishi bir oydan ortiq, lekin uch oydan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib qo'yilgan aerodrom sertifikatining amal qilishini tiklash ekspluatant tomonidan tegishli ariza berilib, kamchiliklar bartaraf etilganligi to'g'risida hisobot taqdim etilgandan so'ng uning amal qilish muddatini uzaytirish tartibi bo'yicha amalga oshiriladi.

45. Qaytadan aerodrom sertifikatini olish uchun ekspluatant umumiy asoslarda ariza berishi kerak.

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **9 §. Aerodrom sertifikatining boshqa shaxsga berilishi**

45<sup>1</sup>. Davavianazorat aerodrom sertifikatining boshqa ekspluatantga berilishiga rozilik berishi mumkin, agarda:

a) aerodrom sertifikatining egasi aerodrom ekspluatatsiyasining tugashidan kamida 10 kun oldin Davavianazoratga yozma ravishdagi bildirishnoma bilan aerodromning ekspluatatsiyasi mazkur bildirishnomada ko'rsatilgan muddatda tugatilishi to'g'risida xabar berganda;

b) aerodrom sertifikatining egasi Davavianazoratga taqdim etilgan yozma ravishdagi bildirishnomada sertifikat berilayotgan yangi ekspluatantning nomini ko'rsatganda;

v) aerodrom sertifikati berilayotgan ekspluatant aerodrom sertifikatining ilgarigi egasi aerodrom ekspluatatsiyasini tugatishidan oldin 10 kun muddatdan kechikmagan holda Davavianazoratga aerodrom ekspluatatsiyasini amalga oshirish uchun yozma ravishda ariza taqdim etganda.

45<sup>2</sup>. Davavianazorat aerodrom sertifikati berilishi lozim bo'lgan ekspluatantning arizasi kelib tushgan kundan boshlab 20 kun ichida aerodrom sertifikatining boshqa ekspluatantga berilishi maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'g'risida qaror chiqaradi va bu haqda aerodrom sertifikati egasini va sertifikat berilishi lozim bo'lgan ekspluatantni yozma ravishda xabardor qiladi.

45<sup>3</sup>. Davavianazorat aerodrom sertifikati berilishi rejalashtirilgan ekspluatantning aerodrom ekspluatatsiyasi va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini tegishli amalga oshirish imkoniyatiga egaligiga ishonch hosil qilmasa yoki aerodrom sertifikatining boshqa shaxslarga berilishi aerodromning ekspluatatsiyasi jihatidan katta o'zgarishlarga (masalan, uchish-qo'nish yo'laklari, burilish yo'laklari va perronda o'rnatiladigan vositalar sonining kamayishiga, mavjud aerodrom sertifikatida ko'rsatilgan ekspluatatsiya shartlarining o'zgarishiga, xodimlar sonining kamayishiga) olib kelsa, aerodrom sertifikatining boshqa shaxslarga berilishiga rozilik bermasligi mumkin.

45<sup>4</sup>. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq aerodrom sertifikati aerodrom egasining o'zgarishi natijasida ham boshqa shaxslarga berilishi mumkin.”

*(to'qqizinchi paragraf O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2008-yil 3-sentabrdagi 188-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-1, 07.10.2008-y.) bilan kiritilgan — O'R QHT, 2008-y., 40-41-son, 417-modda)*

### **III. Sertifikatlangan aerodromlar faoliyati ustidan nazorat**

#### **§ 1. Nazoratni tashkil qilish**

46. Ekspluatatsiya jarayonida havo transportida tashish xavfsizligini ta'minlash va sertifikatlangan aerodromlarning faoliyatini sertifikatlash talablari darajasida tutib turish maqsadida Davavianazorat sertifikatlangan aerodromlar faoliyati ustidan nazoratni aerodromlarda inspeksiya tekshiruvini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

47. Quyidagi nazorat turlari nazarda tutiladi:

a) Davavianazorat tomonidan tasdiqlangan nazorat reja-grafigiga muvofiq rejali nazorat tekshiruvlari. Rejali inspeksiya tekshiruvlarining davriyligi Davavianazorat tomonidan aniqlanadi (sertifikatlashlar orasidagi davr ichida kamida bir marta);



b) Davavianazoratning qaroriga ko'ra aerodromning ushbu Qoidalarning talablariga javob berishi, sertifikat berilayotganda o'rnatilgan shartlar va cheklashlarning bajarilayotganligini tekshirib baholash uchun o'tkaziladigan rejadan tashqari inspeksiya tekshiruvlari;

v) Davavianazoratga aerodrom ekspluatanti, havo kemasining ekspluatanti tomonidan beriladigan axborotlarni inspeksiya tekshiruvi o'tkazmasdan turib ekspert baholash.

48. Inspeksiya tekshiruvi o'tkazish tartibi ushbu Qoidalarning talabiga javob berishi kerak. Tekshirish materiallari asoslovchi hujjatlar bilan birga saqlanadi.

## **§ 2. Aerodromlarni tekshirish**

49. Aerodrom ekspluatanti Davavianazorat inspeksiya komissiyasi (inspektor) ishlashi uchun barcha shartlarni yaratishi shart.

50. Aerodromga yetib kelgan inspektor aerodrom rahbariyatiga o'zini tanishtirishi, guvohnomasini ko'rsatishi, inspeksiya tekshiruvini o'tkazish rejasi bilan tanishtirishi kerak.

Inspektorga topshiriq berish tartibi va topshiriq shakli Davavianazorat tomonidan belgilanadi.

51. Nazorat davomida belgilangan tartib, talablar, qoidalar va amaliy uslublar bajarilishini tasdiqlash uchun inspektorlar faqatgina Davavianazorat ko'rsatmalariga muvofiq va aviatsiya qoidalari talablariga tayangan holda ish ko'rishlari kerak.

52. Aerodromlarni nazorat qilish vaqtida nazoratni amalga oshiradigan mutaxassislar binolar, inshootlar, ma'muriy binolar, parvozlarni radiotexnik ta'minlash, texnik ishlar o'tkazish bo'yicha nazorat zonalari va boshqa obyektlar tegishli jihozlanganligi, uzluksiz ishlashi, nazarda tutilgan vazifalarni bajarish uchun yaroqliligi va sertifikatlash talablariga javob berishiga ishonch hosil qilishi kerak.

53. Inspeksiya tekshiruvi natijalari to'g'risida dalolatnoma rasmiylashtirgan holda aerodrom ekspluatantiga xabar qilinadi. Dalolatnomada aniqlangan barcha kamchiliklar, ularni bartaraf etish muddatlari va tavsiya etiladigan tadbirlar ko'rsatiladi.

## **§ 3. Rejadan tashqari inspeksiya tekshiruvi**

54. Quyidagilar rejadan tashqari inspeksiya tekshiruvi o'tkazish uchun asos bo'ladi:

a) aerodromda parvozlarning xavfsizligi darajasi pasayganligi to'g'risidagi axborot;

b) aerodromdan foydalanish jarayonida uning sertifikatlash talablariga nomuvofiq holga kelganligining aniqlanishi;

v) Davavianazorat tomonidan o'tkaziladigan aviatsiya hodisalarining oldini olish tadbirlari.

55. Rejadan tashqari inspeksiya tekshiruvi nazorat o'tkazish sababidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va Davavianazorat rahbari o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan dasturga muvofiq o'tkaziladi.

56. Inspeksiya tekshiruvi natijalari ushbu Qoidalarning 53-bandiga muvofiq rasmiylashtiriladi.

## **IV. Aerodrom ekspluatantining huquq va majburiyatlari**

57. Aerodrom ekspluatantining huquq va majburiyatlari:

a) aerodrom ekspluatanti sertifikatning faoliyatini to'xtatish yoki sertifikatni bekor qilish to'g'risidagi qaror ustidan qonunchilikka muvofiq shikoyat qilish;

b) aerodromni sertifikatlash talablari darajasida va asoslovchi hujjatlardagi qoidalarga mos holda tutish va foydalanish;

v) aerodrom hududida parvozlarni amalga oshirish bo'yicha yo'riqnomalardagi, aeronavigatsiya ma'lumotlari to'plamlaridagi ma'lumotlarning aerodromning amaldagi holatiga va asoslovchi hujjatlardagi qoidalarga muvofiq bo'lishini ta'minlash;

g) tuzatishlarni belgilangan tartibda Aerodrom hududida parvozlarni amalga oshirish bo'yicha yo'riqnomaga va O'zbekiston Respublikasining aeronavigatsiya axborotlari to'plamiga kiritish;

d) aerodromda sertifikatlash talablariga nomuvofiqliklar aniqlanganda, zudlik bilan aerodromda parvozlarning xavfsizligini ta'minlaydigan cheklovlar kiritish va kiritilgan cheklovlar to'g'risida Davavianazoratga axborot berish;

e) sertifikatlash bo'yicha rasmiylashtirilgan ish jildining unga kiritilgan barcha o'zgarishlari bilan birgalikdagi bir nusxasiga ega bo'lish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

j) mazkur Qoidalarning 3-ilovasida ko'rsatilgan sertifikat olish (uzaytirish) uchun asoslovchi hujjatlar Ro'yxati bo'yicha taqdim qilinadigan hujjatlardagi ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlash.

*(57-band O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2008-yil 3-sentabrdagi 188-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-1, 07.10.2008-y.)asosida "j" kichik band bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2008-y., 40-41-son, 417-modda)*

## **V. Aerodrom ekspluatantining javobgarligi**

58. Aerodrom ekspluatanti quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

a) aerodromni parvozlari xavfsizligini ta'minlaydigan holatda tutib turish;

b) fuqaro aviatsiyasining aerodromlardan foydalanish masalalari bo'yicha faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari talablarini bajarish;

v) aerodrom faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan texnologik tadbirlarni ishlab chiqish;

g) bo'linmalar va xizmatlarda aviatsiya faoliyatini belgilab beradigan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bo'lishi;

d) asoslovchi hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'ri va aniq bo'lishi;

e) sertifikatda va asoslovchi hujjatlarda ko'rsatilgan aerodrom xarakteristikalaridagi o'zgarishlar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish.

O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental  
aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalariga  
1-ILOVA

Davavianazorat rahbariga

**Sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun  
ARIZA**

\_\_\_\_\_ aerodromga  
\_\_\_\_\_ berishingizni so'rayman  
*(sertifikatlashtirish hujjatining nomi ko'rsatilsin)*

Aerodrom egasi \_\_\_\_\_

Aerodrom klassi \_\_\_\_\_

Aerodrom magnit kursi \_\_\_\_\_ XFAT (ICAO) \_\_\_\_\_ toifasi bo'yicha  
jihozlangan (zaruratga qarab to'ldiriladi);

Aerodrom xalqaro parvozlarni uchun mo'ljallangan (zaruratga qarab to'ldiriladi);

Aerodrom \_\_\_\_\_  
*(sertifikatlash talablaridan iborat hujjat nomi ko'rsatilsin)*

\_\_\_\_\_ talablariga javob beradi.

Aerodromning \_\_\_\_\_ bandlari  
*(sertifikatlash talablaridan iborat hujjat nomi ko'rsatilsin)*

talablaridan chetga chiqishi o'rniga parvozlarning mos ravishdagi xavfsizlik darajasini ta'minlaydigan  
tadbirlar kiritildi.

Ilova: ushbu Qoidalarning 12-bandida ko'rsatilgan hujjatlar

M.O'.

\_\_\_\_\_  
*Ariza beruvchining imzosi*

O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental  
aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalariga  
2-ILOVA

**Ariza beruvchining aerodromni sertifikatlashdagi  
MAJBURIYATLARI**

Ushbu orqali \_\_\_\_\_ aerodromni sertifikatlash talablariga javob berishini, taqdim etilgan hujjatlardagi axborot aerodromning amaldagi holatiga  
javob berishini tasdiqlayman va quyidagilarni o'z zimmamga olaman:

1. Aerodromdan va uning asbob-uskunalaridan sertifikatlash talablariga muvofiq holda foydalanish va tutish.

2. Aerodrom ixtiyoridagi hududning holati va baland to'siqlar ustidan nazoratni ta'minlash.

3. Aeronavigatsiya axborotlari to'plamidagi aerodromga taalluqli ma'lumotlarning, aerodrom hududida parvozlarni amalga oshirish bo'yicha yo'riqnomalarning va sertifikatlash hujjatlarining aerodromning va uning asbob-uskunalarining amaldagi holatiga muvofiq bo'lishini ko'rsatilgan hujjatlarga kiritish uchun materiallarni o'z vaqtida tayyorlash va muvofiqlashtirish orqali ta'minlash.

4. Davavianazoratdan aerodrom xarakteristikasiga o'zgartirish kiritish uchun ruxsat olish.

5. Aerodrom va uning asbob-uskunalari holatini nazoratdan o'tkazish uchun Davavianazorat vakillarini aerodrom hududiga kiritish va ularning ishlashlari uchun ko'maklashish.

\_\_\_\_\_  
(imzo)

M.O'.

\_\_\_\_\_  
(lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh)

O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental  
aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalariga  
3-ILOVA

### Sertifikat olish (uzaytirish) uchun asoslovchi hujjatlar RO'YXATI

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### 1-qism. Parvozlarni aerodrom-texnik ta'minoti

a) aerodrom-texnik ta'minoti xizmati xodimlari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar:

familiyasi, ismi, otasining ismi, egallagan lavozimi;

ma'lumoti (o'quv yurti, diplom raqami, tugallangan vaqti, malakasi);

malaka oshirganligi (sana, o'quv yurti);

b) aerodrom xizmatini tashkiliy tuzilmasining sxemasi;

v) aerodrom xizmati to'g'risida nizom;

g) aerodromning sertifikatlash talablariga muvofiqligini tekshirish dalolatnomasi;

d) aerodrom ixtiyoridagi hududni tekshirish dalolatnomasi;

e) ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining sun'iy qoplamalarning mustahkamligi to'g'risidagi, parvozlarning xavfsizligining ekvivalent darajasi ta'minlanganligi to'g'risidagi xulosalar;

j) aerodrom klassi, qoplamalar mustahkamligi, qiyaliklar, qoplamalar holati, joylashgan oraliqlar, to'siqlarning muvofiqlik jadvallari;

z) aerodrom xizmati xodimlarining shtatlar jadvali;

i) xizmatga yuklangan barcha vazifa va topshiriqlarni hisobga olgan holda aerodrom xizmati xodimlarining zaruriy miqdorda borligini tasdiqlovchi hujjatlar;

k) aerodrom xizmati bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati.

*(1-qism O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2010-yil 21-apreldagi 35-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-2, 20.05.2010-y.) tahririda — O'R QHT, 2010-y., 20-son, 158-modda)*

## 2-qism. Parvozlarni radiotexnik ta'minoti

a) RTUAE bazasi rahbar tarkibi va mutaxassislari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar:

familiyasi, ismi, sharifi, egallagan lavozimi;

ma'lumoti (o'quv yurti, diplom №, tugallangan vaqti, malakasi);

malaka oshirganligi (sana, o'quv yurti);

b) Hujjatlar nusxasi:

RTUAE bazasi tashkiliy tuzilmasining sxemasi;

RTUAE bazasi to'g'risida Nizom.

v) RTUAE bazasi shtatlar jadvali va uning to'ldirilishi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

g) RTUAE bazasiga biriktirilgan radiotexnik asbob-uskunalar ro'yxatining yig'ma jadvali, quyidagi ma'lumotlarni keltirgan holda: buyum turi, zavoddan berilgan raqami №, tayyorlangan sanasi, foydalanib boshlangan sana.

*(3-ildan keyin 2-qismi "g" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2012-yil 2-avgustdagi 9n-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-4, 08.08.2012-y.) tahririda — O'R QHT, 2012-y., 32-son, 381-modda)*

d) Radiolokatsiya, radionavigatsiya va aviatsiya elektraloqasining sertifikatlash talablariga muvofiqlik jadvali.

\_\_\_\_\_ obykti \_\_\_\_\_ xarakteristikasining

*(obyektning nomi)*

sertifikatlash talablariga muvofiqlik jadvali

№ t/r	Xarakteristika nomi	O'lchov birligi	Normativ	O'lchash natijasi	Talablarga muvofiqligi	Asoslovchi hujjat	Izoh

e) Obyektning xodimlar bilan to'ldirilganligi, xodimlarning malakasi, maxsus tayyorgarligi va shahodatdan o'tkazilganligi.

j) Obyektda asbob-uskunalarining mavjudligi, ular to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda: zavoddan berilgan raqami, tayyorlangan sanasi, foydalanib boshlangan sana, imkoniyatlaridan qay darajada foydalanib bo'linganligi.

z) Obyektning joylashish sxemasi va obyektda elektr ta'minoti sxemasi.

i) Obyektning foydalanish uchun qabul qilinganligi dalolatnomasining nusxasi.

y) Asbob-uskunalar, elektr ta'minoti, aloqa liniyasi va boshqaruvni rezervga olib qo'yish bo'yicha yo'riqnomalar, rezervga ulanishning (o'tishning) normativ vaqti jadvali.

k) AFQ ulanish rejasi va sxemasi (aviatsiya elektr aloqasi obyektlari uchun).

l) Aloqa va boshqaruv liniyalari sxemasi.

m) Uchuvchilar va dispatcherlar tarkibining e'tirozlarni qayd qilish daftaridan oxirgi olti oy uchun ko'chirma (ushbu obyektga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar).

n) Oxirgi besh yil ichida obyektning ishlay qolganligi to'g'risidagi ma'lumotlar (agar shunday ma'lumotlar bo'lsa).

o) Parvozlarni radiotexnik ta'minoti obyektlarini va aviatsiya elektroloqasidan texnik foydalanishni metrologik ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Ma'lumotnomada quyidagi masalalar aks ettirilishi kerak:

RTUAE bazasida metrologik ta'minot uchun javobgar shaxs tayinlanganligi to'g'risida;

Metrologik ta'minot to'g'risidagi nizamning mavjudligi;

metrologik ta'minot bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish;

rahbar tomonidan tasdiqlangan o'lchov vositalarini tekshirish (kalibrovka) grafigi;

O'lchov vositalarini tekshirishdan (kalibrovka) o'tkazish bo'yicha metrologik laboratoriyalarning mavjudligi;

metrologik ta'minot sohasida normativ-texnik hujjatlarning mavjudligi va ro'yxati;

radiotexnik asbob-uskunalar va elektroloqaga texnik xizmat ko'rsatish uchun o'lchov vositalarining yetariligi.

p) Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarning tashkil qilinganligi to'g'risida ma'lumotnoma. Ma'lumotnomada quyidagilar aks ettirilishi kerak:

butun RTUAE bazasi bo'yicha va tashkiliy bo'linmalar bo'yicha mehnatni muhofaza qilish ishlarining tashkil etilishi uchun javobgar shaxslarni tayinlanganligi to'g'risida (korxonalar rahbarining buyrug'i);

korxonalar rahbari tomonidan tasdiqlangan mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar ro'yxati (ma'lumotnomaga ilova);

maxsus o'qitishni tashkil qilish, bilimlarni tekshirish, yo'riqnomalar o'tkazish va ishlashga ruxsat berish;

xavf darajasi yuqori bo'lgan ishlarda ishlashga ruxsat berishni tashkil etilishi;

elektr qurilmalardan xavfsiz foydalanishni tashkil etilishi;

RTUAE bazasi xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishning tashkil etilishi;

r) Obyektiv nazorat vositalarini yerdagi tekshirish bayonnomasi.

### 3-qism. Parvozlarni elektr-yoritish texnik ta'minoti

a) PEYOTT bazasi rahbar tarkibi va mutaxassislari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar:

familiyasi, ismi, sharifi, egallagan lavozimi;

ma'lumoti (o'quv yurti, diplom №, tugallangan vaqti, malakasi);

malaka oshirganligi (sana, o'quv yurti);

b) Hujjatlar nusxasi:

PEYOTT xizmati tashkiliy tuzilmasining sxemasi;

PEYOTT xizmati to'g'risida Nizom.

v) PEYOTT xizmati shtatlar jadvali va uning to'ldirilishi.

g) PEYOTT xizmatiga biriktirilgan radiotexnik asbob-uskunalar ro'yxatining yig'ma jadvali, quyidagi ma'lumotlarni keltirgan holda: buyum turi, zavoddan berilgan raqami №, tayyorlangan sanasi, foydalanib boshlangan sana;

d) Obyektning xodimlar bilan to'ldirilganligi, xodimlarning malakasi, maxsus tayyorgarligi va shahodatdan o'tkazilganligi;

e) Yorug'lik-signal asbob-uskunalarini tizimining muvofiqlik jadvali (har bir qo'nish yo'nalishi uchun);

j) Yorug'lik-signal tizimini yerdagi tekshirish dalolatnomasi;

z) Yorug'lik-signal tizimini parvozda tekshirish dalolatnomasi, fotosuratlar bilan (har bir qo'nish yo'nalishi uchun). Uchuvchilar va dispetcherlar tarkibi e'tirozlarni qayd qilish daftaridan YoSU ishi bo'yicha oxirgi olti oy uchun ko'chirma. Oxirgi besh yil ichida YoSU ishlamay qolganligi to'g'risidagi ma'lumotlar (agar shunday ma'lumotlar bo'lsa);

i) Perronni va to'xtab turish joyini projektor bilan yoritilishini tekshirish dalolatnomasi;

y) Yorug'lik-signal tizimining foydalanish uchun yaroqli ekanligi to'g'risidagi guvohnomadan nusxa;

k) Quyidagi sxemalar:

Aerodromning yorug'lik-signal asbob-uskunalarining joylashuvi (signal chiroqlari, yoritgichli ko'rsatkichlar va b.)

Perronni va to'xtab turish joyini projektor bilan yoritilishi.

l) Aerodromning elektr ta'minoti va elektrotexnik asbob-uskunalarining muvofiqlik jadvali;

m) Aerodromning elektr ta'minoti va elektrotexnik asbob-uskunalarini tekshirish dalolatnomasi;

n) Aerodromning elektr ta'minoti, qo'nishda havodagi harakatni boshqarish vositalari obyektlarining, radionavigatsiya, aloqa, meteo ta'minot sxemasi\*;

\* Izoh: YoSU, aerodromning elektr ta'minoti, qo'nishda havodagi harakatni boshqarish vositalari obyektlarining, radionavigatsiya, aloqa, meteo ta'minotni yerda tekshirish bayonnomalari ariza beruvchining xizmatida saqlanadi va rasmiy so'roq bo'yicha sertifikatlashtirishga beriladi.

o) PEYOTT xizmatining metrologik ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumotnoma. Ma'lumotnomada quyidagi masalalar aks ettirilishi kerak:

PEYOTT xizmatida metrologik ta'minot uchun javobgar shaxs tayinlanganligi to'g'risida;

metrologik ta'minot to'g'risidagi Nizomning mavjudligi;

metrologik ta'minot bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish;

rahbar tomonidan tasdiqlangan o'lchov vositalarini tekshirish (kalibrovka) grafigi;

o'lchov vositalarini tekshirishdan (kalibrovka) o'tkazish bo'yicha metrologik laboratoriyalarning mavjudligi;

metrologik ta'minot sohasida normativ-texnik hujjatlarning mavjudligi va ro'yxati;

radiotexnik asbob-uskunalar va elektraloqasiga texnik xizmat ko'rsatish uchun o'lchov vositalarining yetarliligi.

p) Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarning tashkil qilinganligi to'g'risida ma'lumotnoma. Ma'lumotnomada quyidagilar aks ettirilishi kerak:

PEYOTT xizmati bo'yicha mehnatni muhofaza qilish ishlarining tashkil etilishi uchun javobgar shaxslarni tayinlanganligi to'g'risida (korxonalar rahbarining buyrug'i);

korxonalar rahbari tomonidan tasdiqlangan mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar ro'yxati (ma'lumotnomaga ilova);

maxsus o'qitishni tashkil qilish, bilimlarni tekshirish, yo'riqnomalar o'tkazish va ishlashga ruxsat berish;

xavf darajasi yuqori bo'lgan ishlarda ishlashga ruxsat berishni tashkil etilishi;

elektr qurilmalardan xavfsiz foydalanishni tashkil etilishi.

#### 4-qism. Parvozlarning meteorologik ta'minoti

a) Xizmat to'g'risida nizom;

b) Shtatlar jadvali;

v) Nazoratchiga ko'z (yoki durbin) bilan kuzatish huquqini beruvchi tibbiy hujjatlarning mavjudligi;

g) Hujjatlarning mavjudligi (pasport, formulyar, texnik tavsif, tur sertifikatlari, tekshirish to'g'risida guvohnoma);

d) Meteorologik asbob-uskunalarining muvofiqlik jadvali;

e) Aerodrom meteouskunalarining tekshirilganligi dalolatnomasi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

j) Aerodromda o'rnatilgan meteorologik asbob-uskunalar ro'yxatining yig'ma jadvali, quyidagi ma'lumotlarni keltirgan holda: buyum turi, zavoddan berilgan raqami, tayyorlangan sanasi, foydalanib boshlangan sana va tekshirilgan sanasi.

*(3-ilovaning 4-qismi O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2012-yil 21-maydagi 48-sonli buyrug'iga (ro'yxat raqami 1734-3, 13.06.2012-y.) asosan "j" kichik band bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2012-y., 23-24-son, 272-modda)*

### **5-qism. Parvozlarni qidirish-avariyadan qutqarish va yong'inning oldini olishni ta'minlash**

a) Aerodromlardagi qidirish-avariyadan qutqarish vositalarining muvofiqlik jadvali;

b) Aerodromlarda qidirish-avariyadan qutqarish kuchlarining muvofiqligini tekshirish dalolatnomasi;

v) PQAQTX xizmatlari to'g'risida nizom, avariya qutqarish ishlari, parvozlarni avariya qutqarishni ta'minlash muhandislarining lavozim yo'riqnomalari;

g) YQH shaxsiy tarkibining mavjudligi va shtatlar jadvali;

d) Havo kemasi to'xtab turish joylarining ko'chma o't o'chirgichlar bilan jihozlanganligi, to'xtab turish joylarining soni va o't o'chirgichlarning turlari bo'yicha soni;

e) Uchish-qo'nish yo'lchasiga ko'pik purkaydigan moslamaning mavjudligi, yong'indan himoyalashning talab qilinadigan darajasi 6 — 10-toifadagi aerodromlar uchun;

j) PQAQTX bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati;

*Oldingi tahrirga qarang.*

z) yong'inga qarshi xizmatlarning xodimlari bilan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun o'quv-texnika bazasining (jihozlangan sinf, poligon, tutun kamerasi, hisobdan chiqarilgan HKning fyuzelyaji va h.k.) mavjudligi.

*(5-qismi O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2008-yil 3-sentabrdagi 188-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-1, 07.10.2008-y.) asosida "z" kichik band bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2008-y., 40-41-son, 417-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental  
aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalariga  
3a-ILOVA

### **Aerodrom bo'yicha qo'llanmaning mazmuni bo'yicha minimal talablar**

Aerodrom bo'yicha qo'llanmada quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

a) aerodrom to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar;

b) aerodromning joylashish maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar;

v) avariya holatlari bo'yicha tadbirlar rejasi;

g) yong'inga qarshi kurashish choralari hamda qutqaruvni tashkil etish bo'yicha ma'lumotlar;

d) ekspluatant tomonidan aerodromning, aerodromdagi ishchi maydonining va to'siqlar balandligining kuzatilishi va nazorat qilinishi;

e) aerodromning vizual vositalar va elektr toki bilan ta'minlanishi;

j) aerodromning ishchi maydoniga texnik xizmat ko'rsatish;



- z) aerodromda ishlarni xavfsiz olib borish;
- i) perrondagi faoliyatni tashkil etish;
- k) perronda xavfsizlikni ta'minlash;
- l) nazorat ostidagi zonada transport vositalarini boshqarish;
- m) aerodromda qushlar va jonivorlar tomonidan yaratiluvchi xavf-xatarlar munosabati bilan ishlarni tashkil etish;
- n) to'siqlarni nazorat qilish;
- o) texnik nosoz havo kemalarini olib tashlash;
- p) xavfli materiallar bilan ishlash;
- r) chegaralangan ko'rinish sharoitlarida aerodromdan foydalanish;
- s) radiolokatsiya va navigatsiya vositalari joylashgan hududlarni muhofaza qilish.”.

*(3a-ilova O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2008-yil 3-sentabrdagi 188-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1734-1, 07.10.2008-y.) bilan kiritilgan — O'R QHT, 2008-y., 40-41-son, 417-modda)*

O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental  
aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalariga  
4-ILOVA

“TASDIQLAYMAN”  
aerodrom ekspluatanti rahbari

200\_\_ y. “\_\_” \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ aerodromida sertifikatlash talablaridan chetga chiqish mavjud bo'lganda  
parvozlari xavfsizligining ekvivalent darajasi ta'minlanganligi to'g'risida  
**XULOSA**

Erkin shaklda bayon etiladi:

1. Normativ hujjatning tegishli bandi ko'rsatilgan holda chetga chiqish mohiyati bayon etiladi;
2. Chetga chiqishga yo'l qo'yilishining sababi.
3. Ushbu chetga chiqishda parvozlari xavfsizligining ekvivalent darajasini ta'minlaydigan tadbirlar.
4. Parvozlari xavfsizligining ekvivalent darajasining ta'minlanganligi to'g'risida xulosa, 3-band bo'yicha tadbirlarning bajarilishini hisobga olgan holda.

Aerodrom xizmati rahbari

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

M.O'.

Izoh: Davavianazorat talabiga ko'ra xulosa ilmiy-tadqiqot va loyiha tashkilotlari, shuningdek fuqaro aviatsiyasining boshqa tegishli xizmatlari bilan kelishilgan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental  
aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalariga  
5-ILOVA

“TASDIQLAYMAN”  
Davavianazorat rahbarining o'rinbosari

200\_\_ y. “\_\_” \_\_\_\_\_

**Sertifikatlashni o'tkazish uchun berilgan ariza bo'yicha  
QAROR**

№ \_\_\_\_\_ 200\_\_ y. “\_\_” \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
*(aviakorxonatashkilot nomi)*

sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqildi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
*(aerodrom nomi)*

1) Sertifikatlashtirish talablariga muvofiq o'tkaziladi. \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
*(normativ hujjatlarning nomi va belgilanishi)*

2) Tekshirish Davavianazorat mutaxassislari tomonidan o'tkaziladi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
*(sertifikatlash tekshiruvi o'tkazish sanasi ko'rsatiladi)*

3) Davavianazorat aerodrom faoliyati bo'yicha davriylikda nazoratni amalga oshiradi

Davavianazorat bo'linmasi rahbari

\_\_\_\_\_  
*(imzo)*

\_\_\_\_\_  
*(F.I.Sh)*

O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental  
aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalariga  
6-ILOVA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PARVOZLAR XAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISH  
DAVLAT INSPEKSIYASI**

**STATE INSPECTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN FOR FLIGHT SAFETY  
OVERSIGHT**

**SERTIFIKAT  
CERTIFICATE**

Aerodrom  
Aerodrome

Aerodromning joylashgan o'rni  
Aerodrome location

Aerodrom egasi  
Aerodrome Owner

Sertifikat egasi  
Certificate Holder

Sertifikatning amal qilish muddati  
Certificate Validity

Ushbu orqali aerodrom sertifikatlash talablariga javob berishi tasdiqlanadi, shu jumladan:

XFAT (IKAO) I-toifasi bo'yicha MK qo'nish — o'ng.; chap.; o'ng.

XFAT (IKAO) II-toifasi bo'yicha MK qo'nish — chap.

This certifies that the aerodrome complies with the certification requirements including:

ICAO Category I RWY R; L; R.

ICAO Category II RWY L.

Aerodrom xalqaro parvozlar uchun yaroqli.  
The aerodrome may serve international flights.

Kuchga kirish sanasi  
Effective date

Davavianazorat boshlig'i

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh)

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental  
aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalariga  
7-ILOVA

## Davavianazorat rahbari o'rinbosariga

**ARIZA**

Quyidagi hujjatga \_\_\_\_\_

*(o'zgartirish kiritiladigan hujjat ko'rsatiladi)*\_\_\_\_\_ o'zgartirish kiritishingizni  
so'rayman.Taklif qilinadigan o'zgartirishlar: \_\_\_\_\_  
*(o'zgartirishlarning qisqacha tavsifi)*

O'zgartirish kiritilgan aerodrom holati javob beradi \_\_\_\_\_

*(sertifikatlash talablari yozilgan hujjat ko'rsatiladi)*

Ilova qilinadigan hujjatlar:

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_

M.O'.

Ekspluatant rahbari

“ \_\_\_\_\_ ”

\_\_\_\_\_  
*(F.I.Sh., imzo)*

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 44-son, 448-modda; 2008-y., 40-41-son, 417-modda; 2010-y., 20-son, 158-modda; 2012-y., 23-24-son, 272-modda, 32-son, 381-modda; 2013-y., 8-son, 111-modda; 2015-y., 3-son, 37-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.09.2018-y., 10/18/1734-7/1858-son)*